

NOVELLA JANRIDA PSIXOLOGIK TASVIR VA RAMZIYLIK

(“Olis Leytey dengizi” misolida)

Charos Avazova

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
magistranti*

E-mail: charosavazova18@gmail.com

***Annotatsiya:** Jamiyatda yuz berayotgan voqea va hodisalar adabiyotda o‘z aksini topadi. Adabiyotdan ham burun inson ruhiyatida bo‘y ko‘rsatadi. Xuddi shu kabi maqolada “Olis Leytey dengizi” misolida inson ruhiyati, psixologik tasvir vositalari va yapon adabiyotining o‘ziga xos jihatlari badiiyat, til, uslub va g‘oya nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, haminqadar ochib berildi.*

***Kalit so‘zlar:** ramziylik, ona, mavzu va mazmun, psixologik portret, ichki monolog.*

Sanatkor — kinochi bo‘ladimi, yozuvchi bo‘ladimi, insoniy fazilatni samolardan izlamasdan yoxud o‘zi toqib-bichmasdan, ularni bugun tevarak atrofimizda umrguzaronlik qilayotgan mehnatkash, dilkash, zahmatkash odamlardan olishi kerak. [Sharafiddinov O. 2:24] Sey Kubotaning “Olis Leytey dengizi” novellasi qahramonlari ham xuddi shunday oddiy mehnatkash kishilardan. Muallif syujetni bayon qilishda retrospektiv usuldan samarali foydalangan. Retrospektiv (orqaga qaytuvchi) syujetda voqealar bir boshdan birin-ketin hikoya qilinmay, balki voqeaning ma‘lum joyida to‘xtatib qo‘yilib, qahramonlarning o‘tmishiga yoki oldingi voqealarga murojaat qilinadi. [Султон И. 3:112] Novella Tome ismli jafokash onaning jangda halok bo‘lgan o‘g‘li Natsuoni tush ko‘rishi tasviri bilan boshlanib, sekin-asta uning butun boshli umr yo‘li xotirlanadi. Badiiy asarlarda ko‘tarilayotgan muammolar, o‘quvchi e‘tiboriga va hukmiga havola qilinayotgan masalalar — badiiy asar mavzusi va mazmuni bevosita asar yaratilgan davr ijtimoiy muhiti bilan chambarchas bog‘liqdir. Ma‘lum bir davr va uning vakillari haqida qiziqarli va muhim voqealarni to‘xtovsiz so‘zlash mumkin, ammo voqealarning shunchaki bayoni badiiy asar darajasiga ko‘tarilishi uchun ijodkor turli badiiy tasvir vositalaridan foydalangan holda voqealar bayonini san‘at asari darajasiga olib chiqadi. Asardagi badiiy obraz xarakterini chuqur va to‘liq ochib berishda muallif badiiy tasvir vositalari bilan bir qatorda psixologik tasvir vositalarini ham qo‘llaydi¹. Adabiyotshunoslikka oid ilmiy manbalarda badiiy psixologizmning uchta asosiy prinsiplari — dinamik prinsip, analitik prinsip va tipologik prinsip ajratib ko‘rsatiladi. Biz uchinchi tamoyilga to‘xtalib o‘tishni lozim topdik: tipologik prinsipda obraz ruhiyati uni shakllantirgan va qurshab turgan muhit shart-sharoitlari bilan bog‘lab tasvirlab beriladi. [Куронов Д. ва б. 4:51] Ya‘ni xuddi shunday Sey Kubota ham Tomening ichki ruhiy holatini ko‘rsatishda asar boshidanoq tashqi tasvirlardan ustalik bilan foydalangan. “Qop-qora neft quyqasi bilan qoplangan

¹ www.oriens.uz/ Adabiyotshunoslikda badiiy psixologizm tushunchasi va masalaning tarixi.

dengiz”, “ko‘zyoshdan ivib ketgan yosti” bu - ayol qalbidagi iztirobning ayni chizgilaridir. Urushda halok bolgan o‘n toqqiz yashar Natsu pochtaxona boshlig‘i ta‘biri bilan aytganda, “hatto u dunyoda ham ota-onasining g‘amini yeyapti”. Chunki davlat tomonidan urushdagi xizmatlari uchun Natsuoning ota-onasiga nafaqa puli tayinlangan. Endi ularga kimdir pinhona, kimdir oshkora hasad qiladi. Gap bunda emas. Asarda sirtidan oddiy qishloq hayoti va uning kundalik tashvishlari hikoya qilingandek ko‘rinsa-da, aslida unda butun boshli umr, taqdirlar aks ettirilgan. Zero, asar kompozitsiyasida vaqt ko‘p narsani ochib beradi. Muallif asarda ikki dugona Tome va Kitining bolalik chog‘lari, ilk muhabbati, oila qurishi, farzand dog‘ini ko‘rishi va nihoyat chorig‘ini kiyib dunyodan ketish yoshigacha bo‘lgan davrni tasvirlagan. Novella sarlavhasi kitobxon e‘tiborini tortmasdan qolmaydi. Aslida har nafaqaoldi tushlarida ko‘ringan Leyte dengizi Tomening xayoloti, xotiroti, quvonchi, sog‘inchi va shirin armonidir. Axir ayol Leyte dengizini ko‘rmagan, hatto haqiqiy dengiz qanaqa bo‘lishini bilmaydi ham. Dengiz aro yagona ko‘ziga ko‘ringan eng qayg‘uli shodligi bu uning o‘g‘li Natsu. Garchi his-tuyg‘ulari, o‘y-kechinmalari rang-barang bo‘lsa-da, Tome siymosida asosiy fonda qalbini farzand dog‘i ortagan motamsaro ona qiyofasi yotadi.

Psixologik tasvir vositalariga keladigan bo‘lsak, ijodkor personaj ruhiy holatini va uning ichki kechinmalari ko‘rsatib berish uchun badiiyat qonuniyatlariga tayangan holda odatiy va noodatiy tasvir vositalaridan foydalanishi mumkin. Ichki monolog (monolog muhokama, monolog xotira, monolog-mulohaza), nutqiy xarakteristika, takror so‘zlar, ong oqimi, psixologik portret (dinamik portret, statik portret), ramzlardan unumli foydalangan holda, noodatiy badiiy tasvir vositalari gallyusiyanasiya, shaxsiyatning ikkilanuvi, o‘zi bilan suhbat, maktub va kundaliklari, tush kabilardan foydalanishi tez-tez kuzatiladi. [Умров X. 5:53] Sey Kubota ham kitobxonni monolog-xotira va tush tasviri orqali Tome bilan yaqindan tanishtirib boradi. Ayol ko‘pchilikning ko‘zini o‘ynatib, har oy keladigan pulga emas, o‘z ko‘zini quvnatib yuradigan o‘g‘liga muhtoj:

- *Nafaqangiz kerakmas, menga Natsuoni qaytaring, o‘g‘limni qaytaringlar.* [Joraqulov U. 1:142] Urush yetkazgan talofatlar kishi botinida ham, zohirida ham beiz ketmaydi. Darhaqiqat, Tomening oilasi bag‘rida kechayotgan to‘kin-sochin hayoti urush to‘foni olib kirgan inqiroz tufayli butkul izdan chiqadi. Ayol zohiran sokin ko‘ringani bilan uning o‘y-kechinmalari orqali botinida bo‘ron qo‘payotganini sinchkov o‘quvchi oson payqaydi. Tome va Kiti bolaligining ilk davrlaridayoq *shu darajada jon kuydirib ishlashdiki, barmoqlarining terisi yedirilib go‘shiti chiqib qolardi.* [Jo‘raqulov U. 1:124] Ular fabrikadagi biqiq muhitda o‘zlarini qafasdagi qushdek sezishadi. Robotdan farq qilmagan holda yoshlik, muhabbat, zavq, baxt gashtini chala-yarim his etib-etmasidan o‘zlarini yana mehnatga uradi. Og‘ir mehnat

tufayli sildan vafot etgan Tomening opasi o‘sha davr muhiti qurboni bo‘lgan, nafaqat jismoniy, balki ruhiy kuchlari qurtdek kemirilgan minglab yoshlarning umumlashma obrazidir. Hayot Tome va Kitini taqdirning turli burchaklariga itqitib yuboradi. G‘am-shodliklarining guvohi, sirdosh dugonasi bo‘lganiga qaramay, Kiti Tomega oshkora gayirlik qiladi. Ziqnaligi, ichiqoraligi, yuzsizligi tufayli kitobxon ilk qarshilashgan onidayoq undan nafratlanishi, yomon ko‘rib qolishi mumkin. Ammo bu nafrat o‘rni asta-sekinlik bilan achinish hissi bilan almashadi. Zero, yozuvchi atayin voqea va tafsilotlarni birdan berib qo‘ymay, sirli “qartalar” singari bosqichma-bosqich ochib boradi. Kiti misolida inson xarakterining shakllanishida gendan ko‘ra tashqi muhit, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy hayot muhimroq ekanligiga amin bo‘lamiz. *Uzukun sholi maydonida ter to‘kishi, mardikorlik qilishi, ko‘mirga qilinadigan xarajatdan qochib uyini isitmasligi va kattakon uyini bittagina o‘ttizlik lampochka xiragina yoritib turishiga, ming tejab-tergashiga qaramay, Kiti o‘ta qashshoqlikda kun o‘tkazadi. U hatto tog‘likdagi o‘rmondan yig‘ib keladigan o‘tinini ham sotadi. O‘zi esa baobab poyasini tutatib, shu bilan kifoyalanadi. Faqat uxlaydigan xonasi - oshxonagagina bo‘yra toshaydi. Boshqa bo‘yralarini eskirib qolmasin deb bir burchakka taxlab qo‘yadi. Oqibat, uy pollaridagi yoriqlardan sovuq havo uradi. Bundan uy ichi battar sovib ketadi.* [Jo‘raqulov U. 1:122] O‘ziga nisbatan bu qadar zug‘um va xasislik qilayotgan kampirning harakatlari o‘qirmanda hayrat uyg‘otishi, savollar tug‘dirishi tabiiy. Keyin ma‘lum bo‘ladiki, hayot yo‘li o‘nqir-cho‘nqir kechgan Kiti ota-ona rizoligisiz oila qurgan. Dastlab eri bilan xarob ibodatxonani makon tutadi, o‘n bir farzand ko‘radi, ammo necha-nechasini tuproqqa topshiradi, qolgani esa ochlik, og‘ir mehnat ta‘sirida suq, kasalmand, kelajakka umidsiz holda ulg‘ayadi. Eri Takudzo ham qaynotasiga bo‘lgan xusumati sabab biron marta to‘yib ovqatlanmaydi, erkin yashamaydi. Uning bor maqsadi - o‘zi, o‘z kuchi bilan mustaqil uy qura olishini qaynotasiga isbotlash. Ammo “*uy bitdi hamki, er-xotin tinchishmadi, qaytamga xasisliklari ortdi. Endi amallab uch yuz yen topish, bir parcha sholibop yer olib haqiqiy yer egasiga aylanish orzusi ularning tushlariga kirib chiqardi; nihoyat, Takudzo uch ming yen yig‘ib, yer egasiga aylandi. Bunga sari, ilk mardikorga chiqqan kunlardan boshlab ko‘nglida g‘imirlab yurgan, deputat bo‘lish orzusi bosh ko‘tardi; har kuni ishdan qaytgan Takudzo, topib kelgan pullarini, albatta, dazmollar, so‘ng ko‘zaga joylab pol ostiga bemitib qo‘yardi*”. [Jo‘raqulov U. 1:130] Oqibatda ochko‘z va xudbin ota o‘z hayotiga qo‘shib, farzandlarinikini ham yo‘qqa chiqaradi: Katta o‘g‘li Masixiro bolaligida yetarlicha his etmagan shodlik va to‘kinlik kemtigini qing‘ir yo‘llardan keladigan pullar orqali to‘ldirmoqchi bo‘ladi. *Ikkinchi o‘g‘il ham xudobexabar chiqdi. U bezorilar to‘dasiga tushib qolgan, birovning hayotiga tajovuz qilganlikda ayblanib, hibsga olingandi. Uchinchi o‘g‘il Tokioda haydovchi bo‘lib ishlar, topganini ichib*

yashardi. [Jo‘raqulov U. 1:140] Ularga zid ravishda qo‘yilgan Tomening o‘g‘li Natsuo pakana, oriq va nimjon bo‘lishiga qaramay, urushda jasorat ko‘rsatadi. Bu orqali yozuvchi jasorat yosh yo jismoniy kuch tanlamasligini isbotlaydi. O‘zbilarmon kelindan ham ro‘shnolik ko‘rmagan Kiti yolg‘izlikda qolgan umrini mehnatga tikib, o‘g‘lining qarzini to‘lash uchun sarflaydi. Uning Tomega nisbatan g‘ayirligi ana shu turmush mushtlaridan zadaligi va mehnatdan bir damga bo‘lsin dugonasi singari tin olish istagi tufaylidir. Aslida ikki dugona ham hayotlarini go‘zallashtirish uchun tinimsiz harakat qildi. Ammo bu harakatlar mevasi tolesizlik va sho‘r qismat bo‘ldi. Axir xato qilish va buning jabrini o‘tash yoki maqsad sari noo‘rin yo‘lni tanlash bularning bari insonga xos bo‘lgan kamchiliklar hisoblanib, inson “xato qiluvchi” degan hukmdan chetga chiqib keta olmaydi. Demak, hayotdagi har qanday hodisa, tasodif bu - avvalo, taqdiri azal. Tome ham, Kiti ham na bu taqdirga isyon qildi, na rozi bo‘ldi. Ularning tayangani iroda atalmish kuchda. Ular butun umr e‘tiqodlariga sodiq qolgan holda baxtni, halovatni yengil-yelpi, egri yo‘ldan emas, qiyin bo‘lsa ham halollikdan qidirdi. Tomening:

-Oh, Kiti, Kiti, biz hech qachon nomimizga dog‘ tushirmadik. Yoshligimizdan beri ko‘rganimiz qora mehnat, - degan iqrori buning yorqin isbotidir. Ko‘rinib turibdiki, tirikchilik uchun o‘zini o‘qqa-cho‘qqa urgan bu dugonalar hech qachon o‘g‘rilikka qo‘l urmadi, har doim inson degan nomga munosib bo‘lishga harakat qildi. Adib Kiti va Tomening tongda quyoshni qay tarzda kutib olishlarini ko‘rsatish orqali ularning o‘tmishdagi va shu kundagi ruhiy holatlariga oydinlik kiritadi. Tome xayolotidagi *dengiz ustida na osmon, na oy va na biror yulduz bor... bu dengiz qancha kemalarni yutib yuborgan.* [Jo‘raqulov U. 1:142] Bizningcha, mualif hayotni ramziy ma’noda dengiz deb atagan. Kemalar esa odam. Hayot dengiz kabi necha-necha odamlarni o‘z komiga tortib ketadi. Asarda urush qattiq qoralangan, jamiyatdagi adolatsiz tartiblar tanqid ostiga olingan, o‘sha davr Yaponiyadagi ijtimoiy hayot: ish haqqining pastligi, og‘ir mehnat, ochlik, qashshoqlik ko‘rsatilib, inson ong egasi sifatida qadrlanishi kerakligi g‘oyasi ilgari surilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dino Butssati. Eynshteyn bilan iblisvachcha [Matn]: hikoya va novellalar; tarjimon: U.Jo‘raqulov. — T.: “Ziyo nashr” nashriyoti 2020.-B.144.
2. Sharafiddinov O. Tanlangan asarlar. — T.: Sharq, 2019, - B. 576.
3. Султон И. Адабиёт назарияси. — Тошкент: Ўқитувчи, 2005. — Б. 134
4. Куронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. — Т.: Академнашр, 2013.
5. Умуров Х. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. — Тошкент: Фан, 1983. — Б. 148.
6. www.oriens.uz